



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti




№3(1)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 254 sahifa,
2-mart, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Woosyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **№C-5669363** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

O'zbek oilalarida ona-bola munosabatlari va ularning oilaviy emotsional muhitni shakllantirishdagi ahamiyati.....	18
<i>Abdullayeva Dilbar Ubaydullayevna</i>	
O'quvchi yoshlarda sog'lom turmush tarzini shakllantirish – ijtimoiy-pedagogik muammo sifatida	22
<i>Mirzayeva Faroxat Odiljonovna</i>	
Raqamli muhit ta'sirida bolalar psixikasidagi transformatsiya jarayonlari.....	30
<i>Abdullayeva Sh. H.</i>	
Turli yosh davrlaridagi shaxslarda o'zini o'zi faollashtirish xususiyatlarining tafovutlanishi	33
<i>Qurbonboyev Azimbek Nazirboy o'g'li</i>	
Bolalarni maktab ta'limiga intellektual tayyorlash va vitagen tajribasini rivojlantirishga metodik yondashuvlar.....	37
<i>Abdullayeva Feruza Shavkatovna</i>	
Boshlang'ich sinflarda tabiiy fanlarni steam asosida o'qitishning interfaol metodlari	42
<i>Aliqarshiyeva Durdona Sharofiddin qizi</i>	
O'simliklar guruhlari mavzusini o'quvchilarga tushuntirishda interfaol metod va vositalardan foydalanishning samaradorligi.....	49
<i>Dehqonboyev Muhammad To'liqin o'g'li</i>	
Kichik maktab yoshidagi shaxsda ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni rivojlantirishning pedagogik shartlari	55
<i>Jo'rayev Avazbek Umar o'g'li</i>	
Matematika o'qitish jarayonida o'quvchilarning mantiqiy kompetentligini shakllantirish	59
<i>Kalandarova Maxliyo Aslonovna</i>	
Raqamli ta'lim sharoitida bo'lajak o'qituvchilarni pedagogik madaniyatini rivojlantirishda raqamli ta'lim imkoniyatlaridan samarali foydalanish.....	63
<i>Kamalova Dilrom Olimjon qizi</i>	
Maktabgacha ta'limni rivojlantirish – kelajak avlod kamolotiga qaratilgan strategik islohot.....	68
<i>Kamolova Gavhar Akbarovna</i>	
Axloqiy qadriyatlar asosida milliy ertaklardan foydalanish texnologiyasi.....	71
<i>Kayumova Nargiza Mirziyatievna, Xo'jayeva Sharofat Olimjon qizi</i>	
Insult bilan xastalangan bemorlarda nutq buzilishlari korreksiyasiga yondashuvlar	74
<i>Maxkamova Laylo Majidovna</i>	
Milliy ta'lim tizimini yangilash va rivojlantirishning strategik modeli	77
<i>Mengliqulova Maftuna Abdullayevna</i>	
Yangi O'zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlik va uning shaxs psixikasiga deterministik ta'siri	82
<i>Nishonova Oydinoy Mashrabjon qizi</i>	
Talabalarning mustaqil ta'lim faoliyatini tashkil etishda o'qituvchining fasilitatorlik roli	86
<i>Sariyeva E'tibor Matchanboyevna, Urazbayeva Sabohat Ortiqbayevna, Yuldasheva Gavxaroy O'rinboy qizi</i>	
Raqamli ta'lim platformalaridan foydalanishning bugungi holati: muammo va imkoniyatlari	90
<i>Suyarov Xurshid Baxriddinovich</i>	
Tarbiya darslarida boshlang'ich sinf o'quvchilarining kommunikativ kompetensiyasini shakllantirish metodikasi.....	95
<i>Toshpo'latova Guldona Tulqin qizi</i>	
Kreativ yondashuvni shakllantirishda o'qituvchining innovatsion faoliyatini shakllantirish metodikasi	98
<i>Usarova Marg'uba Nazar qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kommunikativ nutq malakasini rivojlantirishning metodologik asoslari.....	102
<i>Vaisova Yodgora Sardorbek qizi</i>	
Destruktiv oilalarda shaxslararo munosabat psixologiyasi	106
<i>Sharafutdinova Xadichaxon Gulyamutdinovna</i>	



Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktorlarining axborot kompetensiyasini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari	110
<i>Xalilayev Batirjon Taxirovich</i>	
O'quvchilarning individual ta'lim ehtiyojlarini aniqlash mezonlarining pedagogik va raqamli diagnostik asoslari	114
<i>Xalknazarova Aysuliw Maxsetbaevna</i>	
Klinik integratsiya asosida farmakologiya fanini o'qitish modelini ishlab chiqish	118
<i>Xasanboyeva Nafisaxon Abdullojonovna</i>	
Yurak glikozidlaridan zaharlanishni oldini olishni o'qitishning metodik-pedagogik asoslari	121
<i>Xoliqova Oyistaxon Yuldashevna</i>	
Oliy ta'lim tizimida raqamli transformatsiya sharoitida bo'lajak o'qituvchilarning universal va kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi	125
<i>Xurramov Anvar Jumanazarovich</i>	
Studying the Role of Magic Numbers and Nucleon Shells in Nuclear Structure	129
<i>Yakubova Shoxidaxon Qodirovna, Dehqonova Ohista Qosimjonovna</i>	
Методика адаптивного физического воспитания молодежи с интеллектуальными нарушениями посредством специализированных гимнастических упражнений	133
<i>Аслонова Гуллола Акрам кизи</i>	
Понятие эмоционально-оценочной лексики	137
<i>Каримбаев Ниятбай Шарипович, Усенова Гульзира Женгисбай кызы</i>	
Изучение русского языка с использованием цифровых платформ: потребности, проблемы и решения	140
<i>Умарова Дильфуза Маматкуловна</i>	
Инклюзивное образование в Республике Узбекистан: сравнение с мировым опытом	144
<i>Пирманова Бахора Эшмухаммадовна</i>	
Inklyuziv ta'lim jarayonida empatiya va rahm-shafqatning pedagogik ahamiyati	148
<i>Olimova Sarvara Sobitxon qizi</i>	
Bo'lajak defektologlarni oila bilan ishlashga tayyorlashning nazariy asoslari	152
<i>M. B. Muxtorova</i>	
Maktabgacha yoshdagi eshitishida nuqsoni bor bolalarni talaffuzga o'rgatish metodlari	156
<i>Bo'ronova Suksoraxon Behzodjon qizi</i>	
The Role of Identity, Motivation, and Investment in Teaching English at School (Experimental Study)	160
<i>Shahobova Sitara Baxromovna</i>	
Bo'lajak tarbiyachilarda umummadaniy kompetentlikni rivojlantirish jarayonining zamonaviy ta'lim paradigmasiga mos pedagogik modeli	166
<i>Olimova Dilrabo Nurali qizi</i>	
Raqamli transformatsiya sharoitida tikuvchilik va dizayn ta'limida innovatsion pedagogik yondashuvlar asosida talabalar kasbiy kompetentligini rivojlantirish muammolari va istiqbollari	169
<i>Umarova Fotima Abduraximovna</i>	
Boshlang'ich sinf o'qituvchilarini zamonaviy darsliklardan samarali foydalanishga o'rgatishning interaktiv metodlari	172
<i>Kosimova Gullola Mullajonovna</i>	
Iqtisodiy ixtisoslik talabalari kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning metodologik asoslarini takomillashtirish: rus tili fanini o'qitishda	176
<i>Nuraliyeva Maftuna G'ulomovna</i>	
Raqamli texnologiyalar asosida bo'lajak o'qituvchilarning metodik tayyorgarligini rivojlantirish bosqichlari	182
<i>Xidirova Nodira Abduganiyevna</i>	
Maktabgacha ta'limda ta'lim jarayonini samarali tashkil etishda pedagogning kompetensiyasi	185
<i>Eshmuratova Gauxar Maxsudovna</i>	
Frazeologik birliklar identifikatsiyasi	188
<i>Omadjon Azamov Burxonovich</i>	

O'smirlik davrida empatiya rivojlanishiga ijtimoiy tarmoqlar va virtual muloqotning ta'siri	192
Qodirova Zebuniso Malikovna	
Pedagogical Mechanisms for Enhancing the Competitiveness of Higher Education Services in the Context of Socio-Economic Globalization	197
Babayeva Lola Ibragimovna	
Integrativ yondashuv asosida talaba qizlarda jismoniy madaniyatni rivojlantirishning pedagogik tizimini takomillashtirishning dolzarbligi	202
M. X. To'xtamisheva	
Murakkab nuqsonli bolalarni umumta'lim maktablariga tayyorlash jarayonida logopedning kommunikativ malakasini shakllantirishning nazariy va amaliy asoslari.....	207
Abdubokiyeva Adiba Baxodir qizi	
Oliy ta'limda mustaqil ta'lim mazmunini kognitiv kompetensiyalarga yo'naltirib tashkil etish	211
Adashova Guljaxon Muxammadjonovna	
STEAM yondashuvi asosida tayyorlov guruh bolalarining bilish faoliyatini faollashtirishning samarali yo'llari	215
G. B. Maxmudova	
Bo'lajak oligofreno-pedagoglarning kompetentlik faoliyatini tashkil etishning psixologik-pedagogik shart-sharoitlari	219
Jumaboyev Nurillo Xayrullo o'g'li	
Sun'iy intellekt asosida ta'lim sifatini monitoring qilish mexanizmlarini takomillashtirish	223
Jumanazarova G. U.	
Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda duduqlanishni o'yin asosida bartaraf etish texnologiyalari	227
Jumanazarova Gullola Yoqubjanovna, Mamatqulova Sarbarxon Axmadjon qizi	
Axloqiy qadriyatlar asosida milliy ertaklardan foydalanish texnologiyasi.....	230
Kayumova Nargiza Mirziyatrovna, Xo'jayeva Sharofat Olimjon qizi	
Sharq va G'arb mutafakkirlari merosida shaxs tarbiyasi masalalari	233
Mirabzalova Zaxro Shuhrat qizi	
Oliy ta'limda talabalarning o'z-o'zini personallashtirishini tashkil qilish	238
Shamsiddinova Adiba Muzaffar qizi	
Формирование интеллектуальных умений детей старшего дошкольного возраста в условиях цифровой образовательной среды	242
Скрыльников Юрий Степанович	
Динамика становления профессионально значимых личностных качеств будущих педагогов.....	246
Тиллашайхова Хосият Азаматовна	
Hamid Olimjon ijodining shakllanishidagi manbalar va ijodiy omillar.....	250
U. A. Jumanazarov	

FRAZEOLOGIK BIRLIKLAR IDENTIFIKATSIYASI

Omadjon Azamov Burxonovich

Andijon davlat chet tillari instituti,

Nemis tili nazariyasi va adabiyoti kafedrası mudiri, PhD, dotsent

Annotatsiya: Mazkur maqolada nemis tilidagi frazeologik birliklarni differensial tahlil qilish masalasi yoritiladi. Ilmiy izlanishlar jarayonida frazeologizmlarni boshqa shakldosh so'z birikmalaridan ajratish tamoyillari asoslab beriladi. Nemis tilidan keltirilgan misollar asosida frazeologik birliklarni identifikatsiya qilish mezonlari aniqlashtiriladi hamda ularning semantik va struktur xususiyatlariga ilmiy baho beriladi.

Kalit so'zlar: identifikatsiya, frazeologik birlik, idiomatiklik, semantik transformatsiya, ma'no yaxlitligi, komponent.

Abstract: This article examines the issue of differentiating phraseological units in the German language. It substantiates the principles for distinguishing phraseological units from other structurally similar word combinations within the framework of scientific research. Based on examples drawn from the German language, the criteria for identifying phraseological units are clarified, and their semantic and structural features are analyzed from a scholarly perspective.

Key words: identification, phraseological unit, idiomaticity, semantic transformation, semantic integrity, component.

Аннотация: В данной статье рассматривается проблема дифференциации фразеологических единиц в немецком языке. Обосновываются принципы разграничения фразеологических единиц и других структурно сходных словосочетаний в процессе научного исследования. На основе примеров из немецкого языка уточняются критерии идентификации фразеологических единиц, а также анализируются их семантические и структурные особенности.

Ключевые слова: идентификация, фразеологическая единица, идиоматичность, семантическая трансформация, смысловая целостность, компонент.

KIRISH

Tilshunoslikda o'ziga xos lingvistik xususiyatlarga ega bo'lgan frazeologik birliklar xalqning turmush hayotida, tevarak-atrofida sodir bo'layotgan tabiiy hamda ijtimoiy hodisalar, turli jarayonlar, hatti-harakatlarga bo'lgan munosabati va kuzatishlari natijasida yuzaga keladigan til birliklaridir [5, 118]. Frazeologiya tilshunoslikning til tarkibidagi turg'un so'z birikmalarini o'rganadigan sohasidir. "Frazeologiya" terminini tilga olar ekanmiz, ko'z oldimizga tildagi barcha turg'un so'z birikmalari keladi.

Soha tadqiqi davomida quyidagi masala dolzarb bo'lib qolmoqda: frazeologik birliklarni boshqa shakldosh so'z birikmalaridan (kompozitalar va erkin so'z birikmalaridan) qanday ajratish mumkin? Aynan shu savol ko'plab tilshunos olimlarni uzoq yillardan buyon ilmiy izlanishga undab kelmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

FB ham leksik birliklar hisoblanadi (ikki tomonlama til birliklari), ammo oddiy leksikalardan farq qiladi. Leksik birliklar muayyan shaklga ega bo'lgan lingvistik belgilar hisoblanadi, turg'un so'z birikmalari esa o'ziga xos shaklga ega bo'lgan leksik birliklardir. Boshqa turdagi so'z birikmalariga nisbatan FBda semantik idiomativlikning mavjudligini olimlar ular orasidagi asosiy farq deb bilganlar. Ammo shunday qo'shma so'zlar borki, ularning komponentlari semantik transformatsiyaga uchragan. Masalan: die Schlafmütze – so'zma-so'z: uxlash paytida kiyiladigan tungi qalpoq; ko'chma ma'nosi: uyquchi. Der Blaustrumpf – so'zma-so'z: yashil paypoq; ko'chma ma'nosi: o'zini ilimga bag'ishlagan va ayollik tarovatini yo'qotgan ayol. Misollardan ko'rinib turibdiki, kompozit so'zning ma'nosi komponentlar ma'nolaridan yuzaga kelmagan.



FB erkin sintaktik so'z birikmalariga qiyoslanganda quyidagi belgilar orqali farqlanadi. Frazеologizm shunday turg'un so'z birikmasi, u o'zining barqarorligi bilan xarakterlanadi. Barqarorlik semantik barqarorlikni, strukturaviy barqarorlikni (komponentlar tarkibidagi barqaror so'z tartibi va, qoida tariqasida, komponentlarning almashmasligini), shuningdek, iste'mol barqarorligini taqozo etadi. FB tayyor holda mavjud bo'lgan birliklardir, ya'ni ular lug'atlarda qayd etilgan va nutqda tayyor birlik sifatida qo'llanadi. Frazеologik komponentlar variatsiyanishi mumkin, shu bois ulardagi barcha komponentlarning barqarorligi mutlaq tushuncha emas. Frazеologizm shunday struktur-semantik til birligiki, u ham leksik birliklardan, ham erkin sintaktik birikmalardan ko'chma ma'no, struktura va iste'mol barqarorligi orqali farqlanadi.

Idiomativlik (yaxlit ko'chma ma'no) mezoniga ko'ra, idiomativlik deganda komponentlarning o'z leksik ma'nosini yo'qotib, turg'un ibora shaklida yangi, umumiy va yaxlit ma'no kasb etishi hamda semantik transformatsiya tushuniladi. Bunga quyidagi FBlar misol bo'la oladi: "Gustav hat bei seinem Vater ein Auto in der Garage." So'zma-so'z: Gustavning otasinikida garajida mashinasi bor. Ushbu misol komponentlarning erkin birikuviga asosida shakllangan bo'lib, uning ma'nosi komponentlarning erkin ma'nolaridan kelib chiqadi. "Gustav hat bei seinem Vater einen Stein im Brett." So'zma-so'z: Gustavning otasinikida shaxmat taxtasida bitta toshi bor. Ko'chma ma'nosi: Gustav otasi uchun qadrlil va sevimli. Ushbu ikki misolni qiyoslash orqali ma'lum bo'ladiki, ikkinchi gap ma'nosi "Stein" (tosh) va "Brett" (shaxmat taxtasi) komponentlarining qo'shma ma'nolaridan shakllanmagan. Bunday holatda gapning ma'no strukturasiga e'tibor bermagan til o'rganuvchi uning asl ma'nosini anglay olmaydi. FBning ma'nosi bir butun yaxlitlikdan iborat bo'lib, bu yaxlitlik tarkibiy qismlarga (komponentlarga) nisbatan qisman yoki to'la farqli ma'no kasb etadi.

Bir qarashda "shaxmat doskasi" va "tosh" leksik birliklarining "qadrlil bo'lmoq", "sevimli bo'lmoq" ma'nolari bilan aloqadorligini tasavvur qilish qiyin. Sababi, bu ma'no nafaqat predikatning frazem strukturasiga, balki til tizimida faol qo'llanmaydigan tarixiy unsurlarga ham bog'liq bo'lishi mumkin. Yana bir misol: "Ich verstehe immer nur Bahnhof, weil er so undeutlich spricht." Ko'chma ma'nosi: hech narsani tushunmadim, chunki u juda tushunarsiz gapiradi. So'zma-so'z: men doimo faqat bekatni tushunaman. Mazkur jumla ham til o'rganuvchiga qiyinchilik tug'diradi, agar u "Bahnhof verstehen" iborasining "hech narsani tushunmaslik" ma'nosini anglatishini bilmasa.

Qo'shimcha misollar sifatida quyidagilarni keltirish mumkin: "Man soll den Teufel nicht an die Wand malen", "Er liegt seit gestern auf der Straße", "Das ist ein dicker Hund", "Mit dieser Bemerkung ist er ins Fettnäpfchen getreten". Frazеologik birliklarni boshqa leksik birliklardan ajratishning yana bir omili ularning idiomativlik xususiyatidir. Biroq frazeologik komponentlarning idiomativligi barcha qismlarga birdek taalluqli bo'lmasligi mumkin. Ayrim hollarda komponentlardan biri yoki bir nechitasi o'zining uzual (asliy) erkin ma'nosini saqlab qoladi [3, 299].

To'la idiomativ FBda barcha komponentlar semantik transformatsiyaga uchraydi: vom Fleisch fallen – ozimoq; j-m zu schaffen machen – kimdadir tashvish uyg'otmoq; mit j-m noch ein Hühnchen zu rupfen haben – kim bilandir hisob-kitob qilmoq. Qisman idiomativ FBda esa ayrim komponentlar erkin ma'nosini saqlaydi: von Tuten und Blasen keine Ahnung haben – hech narsani bilmaslik; sich ins Fäustchen lachen – ichidan kulmoq; j-m etw. hoch und heilig versprechen – qat'iy va'da bermoq. Mashhur nemis tilshunoslari V. Fleyshter va H. Burger frazeologik birliklardagi idiomativlikni ikki turga ajratadilar [6, 200]: ochiq (shaffof) metaforizatsiya – semantik transformatsiyani metaforik jarayon asosida anglash mumkin bo'lgan FBlar; yopiq metaforizatsiya – tarixiy shart-sharoitlarga bog'liq bo'lib, ularni anglash uchun chuqur etimologik bilim talab qilinadigan FBlar. Yopiq metaforizatsiyaga j-m geht ein Seifensieder auf einen Narren, an j-m gefressen haben, alle(s) über einen Leisten schlagen, auf dem Holzweg sein, das Hasenpanier ergreifen, Fersengeld geben, auf der Bärenhaut liegen kabi iboralar kiradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda frazeologik birliklarning semantik va struktur xususiyatlarini aniqlash maqsadida qiyosiy-tahliliy, semantik va komponent tahlili metodlaridan foydalanildi. Frazеologik birliklar erkin sintaktik birikmalar hamda kompozit birliklar bilan qiyoslandi. Misollar asosida idiomativlik darajasi, semantik transformatsiya xususiyatlari va komponentlarning o'zaro munosabati tahlil qilindi. Shuningdek, ochiq va yopiq metaforizatsiya mezonlari asosida frazeologik birliklarning klassifikatsiyasi amalga oshirildi. Nazariy xulosalar ilmiy adabiyotlar hamda lug'aviy manbalar asosida umimlashtirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Misollardan ko'rinib turibdiki, yopiq metaforizatsiyalarda FBning ma'nosini komponentlarning lug'aviy ma'nosi asosida aniqlash qiyin, sababi FBdagi ish-harakat tarixda bo'lib o'tgan turli voqealarga bog'liq. Misol o'rnida "auf der Bärenhaut liegen" iborasining etimologiyasiga e'tibor qarataylik. Qadimgi Rim tarixchisi Tatsitusning "Germania" asarida yozilishicha, german qabilalari dastlab ovchilik orqali kun kechirgan. Qabila ayollari

uy-ro'zg'or ishlari bilan band bo'lgan bo'lsa, erkaklar faqat ovga chiqqan yoki o'zaro qabila urushlarida ishtirok etgan. Boshqa paytlarda esa o'zlari ovlagan ayiq terisidan tikilgan po'stinlarga o'ranib yotishgan. Keyinchalik germanlarning bu odati nemis tilida iboraga aylangan va bekorch hamda dangasa odam obrazini ifodalab kelgan [2, 90]. Bu kabi iboralar o'zining tarixiylikiga qaramay, til birligi sifatida e'tiborga molik darajada mustahkam yashab kelmoqda.

Nemis tilining frazeologik tizimiga doir yana shunday til birliklari borki, garchi germanist olimlar ularning frazeologik tizimda mavjudligini aniqlagan bo'lsalar-da, hozirga qadar ularni o'ziga xos lingvistik termin bilan nomlash borasida yakdil fikrga kelinmagan. Idiomativlikning bu turiga mos termin hozircha mavjud emasligi sababli germanist tilshunoslari asosan yoki aksariyat sinsemantik til birliklaridan iborat FBlarni "spesializatsiyalar" deb ataganlar [7].

Sinsemantikalar tor mustaqil ma'noga ega bo'lgan, ya'ni ot, fe'l, sifat, ravish va son so'z turkumlariga kirmaydigan so'zlardir. Bu turkumga artiklar, olmoshlar, predloglar va bog'lovchilar kabi mustaqil lug'aviy ma'noga ega bo'lmagan til birliklari kiradi. Sinsemantikalar gapda asosan bog'lovchi funksiyani bajaradi. Ularning lug'aviy va idiomatik sharhi o'rtasida metaforik aloqa mavjud emasligi sababli, sinsemantikalar ishtirokida shakllangan iboralarning ma'nosini obrazli tasavvur qilish qiyinlashadi.

Bu jarayonni quyidagi misollarda ko'rish mumkin: nicht ganz ohne sein (anoyilardan emas), es in sich haben (mushkul bo'lmoq), (nicht) an dem sein (o'zini shunday tutmoq), es nicht unter etw. tun (e'tiroz bildirmoq), etw. an sich haben (topishmoq qilmoq), nicht recht beieinander sein (o'zini yaxshi his qilmaslik), es nicht mehr bringen (kuchdan qolmoq) [4], etw. zum besten geben (ijro etmoq).

Quyida ularning birini leksik-morfologik tahlil qilamiz: bei jm unten durch sein – kimdir tomonidan tan olinmaslik [2, 109]. bei – predlog, jm (jemandem) – olmosh, unten – ravish, durch – predlog, sein – yordamchi fe'l (bo'lmoq). Keltirilgan misollar va ibora tahlilidan ko'rinib turibdiki, "spesializatsiyalar" deb ataluvchi ushbu turg'un iboralar asosiy mustaqil so'z turkumli tarkibga ega emas va ularning lug'aviy hamda idiomatik ma'nolari o'rtasida yaqinlik mavjud emas.

Yuqorida bayon etilgan fikrlarga e'tibor qaratilsa, nemis tili frazeologik tizimining naqadar murakkab ekanligiga amin bo'lamiz. Umuman olganda, til tizimida frazeologizmlar qanchalik ko'p o'rganilmasin, kelgusida yanada chuqurroq frazeologik tadqiqotlarga ehtiyoj sezilishi ayon. Ushbu ilmiy izlanishning asosiy maqsadi – FBlarni boshqa leksik birliklardan ajratish – talaygina aniq mezonlarni talab qiladi. FBga xos ayrim xususiyatlar (turg'unlik, tayyor holda mavjudlik) boshqa til birliklarida ham uchrashi esa masalaga aniqlik kiritishda turli qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi. Shu bilan birga, bir tilga xos idiomativlik kategoriyalari ikkinchi o'rganilayotgan til tizimiga mos kelmasligi yoki umuman mavjud bo'lmisligi ham sohadagi qarashlarning murakkablashuviga sabab bo'lmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Keltirilgan fikrlar xulosasiga ko'ra, frazeologiya fani FBlarni til tizimidagi o'ziga xos leksik birlik sifatida o'rganadi. Fanning eng dolzarb vazifasi – FBlarni boshqa shakldosh va vazifadosh leksik birliklardan ajratish hamda bu jarayonning barqaror mezonlarini belgilashdir.

Demak, germanist olimlar tomonidan tavsiya etilgan asosiy indikatorlar FBlarining barqarorlik va idiomativlik xususiyatlaridir. Barqarorlik mezoni quyidagilarni o'z ichiga oladi: semantik barqarorlik (yaxlit ma'noga ega bo'lish), strukturaviy barqarorlik (komponentlar tarkibidagi barqaror so'z tartibi va, qoida tariqasida, komponentlarning almashmasligi), iste'mol barqarorligi (FBlarining tayyor holda mavjud bo'lishi). Frazeologizm shunday struktur-semantik til birligiki, u ham leksik birliklardan, ham erkin sintaktik birikmalardan ko'chma ma'no, struktura va iste'mol barqarorligi orqali farqlanadi, bu xususiyat esa idiomativlik mezoni orqali aniqlanadi.

Idiomativlik deganda komponentlarning o'z leksik ma'nosini yo'qotib, turg'un ibora shaklida yangi, umumiy va yaxlit ma'no kasb etishi hamda semantik transformatsiya tushuniladi. Idiomativlik kategoriyasi o'z navbatida ochiq va yopiq transformatsiyalarga bo'linadi. Lug'aviy ma'nosini saqlab qolgan va semantik transformatsiyani metaforik jarayon asosida anglash mumkin bo'lgan FBlar ochiq (shaffof) metaforizatsiyalar deb ataladi [6, 299]. Agar FBning metaforik obrazlilik so'zlovchiga tushunarli bo'lmagan tarixiy shart-sharoitlarga bog'liq bo'lib, ularni anglash chuqur etimologik bilimni talab qilsa, bunday iboralar yopiq metaforizatsiyalar deb nomlanadi.

Tadqiq etilayotgan til tizimidagi FBlarining asosiy komponentlari ba'zan mustaqil ma'no anglatmaydigan til birliklari orqali ifodalanishi ham sohaning qanchalik rang-barang ekanini ko'rsatadi. Bunday iboralar odatda predloglar, ravishlar, yordamchi fe'llar hamda gumon olmoshlari yordamida shakllanadi va ular germanist olimlar tomonidan "spesializatsiyalar" deb ataladi.

Shuningdek, ta'kidlash joizki, til tizimida frazeologizmlar sohasida hali to'liq o'rganilmagan ko'plab jihatlar mavjud bo'lib, ular chuqur ilmiy-qiyosiy va chog'ishtirma tadqiqotlarni taqozo etadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Burger H. Phraseologie: eine Einführung am Beispiel des Deutschen. – 2., überarb. Aufl. – B.: Erich Schmidt, 2003. – 224 S.
2. Duden. Redewendungen. Wörterbuch der deutschen Idiomatik. – 4., neu bearbeitete und aktualisierte Auflage. – Herausgegeben von der Dudenredaktion; redaktionelle Bearbeitung: Dr. Werner Scholze-Stubenrecht (Projektleiter) und Angelika Haller-Wolf. – Duden Bd. 11. – Berlin, 2003.
3. Fleischer W. Phraseologie der deutschen Gegenwartssprache. – 2., durchgesehene und ergänzte Auflage. – Tübingen: Niemeyer, 1997.
4. Lug'at. Versiya 0.3. Copyright 1999-2003. OOO "SPELLS", elektron lug'atlar.
5. Ismatullayeva N. Xitoy va Koreys lingvomadaniyatida "ajdaho" hamda "yo'lbars" zoonimli FB xususida. Ilmiy to'plam. – Toshkent, 2005.
6. Burger H. Phraseologie: eine Einführung am Beispiel des Deutschen. – 2., überarb. Aufl. – B.: Erich Schmidt, 2003.
7. Wikipedia. Synsemantikum. Bezeichnung für Wörter, die in erster Linie eine grammatische Funktion haben, aber oft nur eine schwache eigenständige, das heißt lexikalische Bedeutung aufweisen.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №3(1)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.